

UO'T:635.64

CHERRI POMIDOR NAV NAMUNALARINI ISSIQXONADA YETISHTIRISHDA HOSILDORLIK KO'RSATKICHALARINING KORRELYATSION BOG'LQLIGI

Egamberdiyev Sobir Yo'ldoshevich
Toshkent davlat agrar universiteti (PhD)

Annatotsiya: ushbu maqolada cherri pamidor mevasining o'rtacha vazni, degustatsion bahosi va biokimyoviy tarkibi aniqlanib, bunda duragaylar aro eng yuqori meva vaznga ega bo'lgan Quality seed navida mevalarining o'rtacha vazni 43 gramni tashkil etganligi, eng kam ko'rsatkich esa Dikovinka va Krasniye busi navida 10-12 gramni tashkil etganligi va qolgan namunalarda esa bu ko'rsatkich 15-23 gramdan meva vazniga ega bo'lganli keltirib o'tilgan.

Kalit so'zлari: cherri, pomidor, issiqxona, fotosintez, harorat, namlik, nav, navmunalar tanlash.

Kirish

Hozirda cherri pomidor yetishtirish hajmini ko'paytirishga talab ortib bormoqda. Shu bois qishloq xo'jaligi rivojlangan Yevropa mamlakatlari, AQSH, Isroil, Yaponiya, Rossiyada cherri tipidagi mevasi kichik (10-20 g), tashqi ko'rinishi chiroyli, qizil, sariq, qora, pushti rangli, mazasi shirin yangi navlarni yaratish va yetishtirishni innovatsion texnologiyalarini qo'llash bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shunday bo'lsada bugungi kunda issiqxonalarda cherri pomidorni serhosil, kasalliklarga chidamli nav va duragaylarini o'rganish, ajratish hamda yetishtirishning innovatsion texnologik elementlarini ishlab chiqish, takomillashtirish hamda tan narhini kamaytirish muxim hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi Pomidorni issiqxonalarda cherri tipidagi nav namunalarini yetishtirish texnologik elementlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

cherri pomidorni issiqxonalarda nav namunalari qimmatli xo'jalik belgilari (tezpisharligi, kasalliklarga chidamliligi, hosildorligi, meva sifati) bo'yicha baholash va istiqbolli navlarni ajratish;

Tadqiqot obekti: **Tadqiqotning obekti** sifatida cherri pomidorni 10 ta nav namunalarini o'simligi va mevalari, 4 ta o'sishni boshqaruvchi va 1 ta suv tejovchi moddalar va 4 ta ekish usullari xizmat qiladi.



Tadqiqot natijalari: Tajribada tovarbop hosil namunalar aro bir biridan farqlandi. Bunda eng yuqori tovarbop hosil Blek cherri, Krasniy slivovidniy, 1000 N2 pomidorki va Medoviy kaskad namunalarida bir metr kvadratdan 12,7-14,7 kg hosil olindi va tovarbop

hosil ulushi esa 93,0-94,2 foizni tashkil etdi. Standart navning tovarbop hosili 9,5 kg ni tashkil etib, unga yaqin, bir xilda hosil to‘plagan namunalar Dikovinka, va Balkonnoye chuda 9,5-9,7 kg ni tashkil etgan. Tajribada eng kam hosil to‘plagan namunalar Guliver va Quality seed navlari ($5,5-6,2 \text{ kg/m}^2$) bo‘ldi va tovarbop hosil ulushi 85,4-86,1 foizni tashkil etdi. Tajribada albatta cherri pomidor o‘simgilining turli xil nav namunalarining biologik xususiyatlari, gullashi, changlanishi va hosil to‘plash xususiyatlari bir biridan farqlanishi kuzatildi.

Tajribada standart Marvarid navaiga nisbatan Blek cherri, Krasniy slivovidniy, 1000 N2 pomidorki, Dikovinka, Medoviy kaskad, Krasniye busi va Balkonniy jeltiy F₁ nav namunalari 14-55 foizga yuqori tovarbop hosil bergenligi va hosil sifati yaxshi ekanligi aniqlandi. Guliver va Quality seed navlari esa standartga nisbatan 43-35 foiz kam tovarbop hosil bergenligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Nav namunalari mevasining rangi, vazni va hosildorligini aniqlash.



2-rasm Cherri pomidor nav namunalarini issiqxonada yetishtirishda hosildorlik ko‘rsatkichlarining korrelyatsion bog‘liqligini (2024y.).

Tovarbop hosil ulushi va tovarbop hosil ko‘rsatkichlar orasida o‘zaro o‘rta darajada ijobiy korrelyatsion bog‘liqlik borligi kuzatilib, korrelyatsiya koeffitsiyenti $r=0,94$ ($R^2=0,8071$) ga teng bo‘lib, yuqori darajada ijobiy bog‘lanish mayjudligini ko‘rsatdi.

Degustatsion bahosini aniqlashda issiqxonada yetishtirilgan cherri pomidor mevalarining mazasi rangi va mava sifatlari bo‘yicha bahosida namunalar aro katta farqlanish bo‘lmadi. Barcha nav namunalarining degustatsion bahosi 9,1-9,8 ballni tashkil qildi. Bu albatta cherri pomidor mevalarining o‘ziga xos mazali ekanligi va shakl, ko‘rinishi bilan degustatsion bahosi yuqori ekanligi kuzatildi. Nisbatan degustatsion bahosi

yuqori bo‘lgan (9,8 ball) namunalar Medoviy kaskad, 1000 N2 pomidorki va Balkonniy jeltiy F₁ da kuzatildi.

Tadqiqotda cherri pomidor nav namunalari mevalarining biokimiyoviy tarkibi ham aniqlandi. Bunda mevalardagi quruq modda, qand miqdori, vitamin S va nitrat miqdori aniqlandi (3.10- jadvalga qarang).

Nav namunalari tarkibidagi quruq modda miqdori 6,1-7,0% ni tashkil etib, eng yuqori ko‘rsatkich Blek cherri va Balkonnoye chuda navlarida 7,0 % ni tashkil qildi. Quruq modda miqdori past bo‘lgan Medoviy kaskad va 1000 N2 pomidorki navlarida 6,1-6,2 % borligi ma’lum bo‘ldi. Qolgan namunalarda nisbatan o‘rtacha 6,3-6,9 % ni tashkil etdi.

Qand miqdori nav namunalar aro Krasniye busi, Blek cherri va Balkonniy jeltiy F₁ nav namunalarda yuqori ko‘rsatkichni 5,8-5,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, qolgan navlarda nisbatan past darajada 5,0-5,7 % qand miqdori aniqlangan.

Xulosa: Shu bilan birga mevalar tarkibidagi S vitaminining miqdori esa nav namunalari aro 29,8-33,8 mg% ni tashkil etdi. Eng yuqori ko‘rsatkich standart Marvarid navida va Balkonnoye chuda navida 33,4-33,8 % ni tashkil etdi. Qolgan navlarda ushbu ko‘rsatkichdan past bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Авдеев Y.I. Селексиya томатов. – Кизшинев: SHтиинса, 1982. – 284 с.
2. Алпатьев A.B. Помидори. М., “Московский рабочий”, - 1981. – 302 с.
3. Арамов М.Х. Еколо-генетические основы селекции томата на устойчивость к патогенном и адаптивнуу способность. Автореф. дисс....доктора с-х. наук. СПб., 1994.-48 с.
4. Асатова С.С. Влияние регулятора роста тетранила на рост, развитие и урожайность томата и огурца.// Автореф.канд.дисс. Ташкент.ТашГАУ. 1995. С.6-7.
5. Брежнев Д.Д. Томати. – Л.: Государственное издательство сельскохозуайственной литературы, 1955. – 351 с.
6. Бо‘риев X.Ч, Сабзавот екинлари селексиуаси ва уруг‘чилиги. – Toshkent. Mehнат, 1999. – Б. 16-25.
7. Жуковский П.М. Культурные растения и их сородичи. -3-е изд. Л., «Колос». 1971. - С. 265-272.
8. Колмікова Т.С. Влияние продолжительности обработки семян регуляторами роста на продуктивность сельскохозуайственных растений. // Автореферат на соискание ученой степени кандидат сельского хозяйства наук. – Саратов. СГУ, 2002. – 16 С.